

SIYOSATGA DOIR KATEGORIYALARNI ANGLASHNING ILMIY- TEXNOKRATIK MAZMUNI

Baxtiyrov Javohirbek Jaxongirovich

O'zbekiston milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi

Tel: +99890 110 70 76, jahongirovich97@gmail.com

Annotatsiya

Jamiyat ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, individlar, tabaqalar, sinflar birlashuvidan, jipslashuvidan tarkib topar ekan, uni boshqarish uchun ma'lum siyosatni olib borishni taqozo etadi. Chunki ma'lum tanlab olingan siyosatni yurgizish orqali sotsial subyekt hisoblangan davlatda ijtimoiy tartib, barqarorlik, ijtimoiy bahamjihatlik, tinchlik, adolat kabi qonun - qoidalar o'rnatiladi.

Kalit so'zlar. Siyosat, siyosiy hayot, siyosiy jarayon, siyosiy munosabat, siyosat turlari (adolatli, adolatsiz), siyosat funksiyalari, siyosiy barqarorlik, nisbiylik, o'zgaruvchanlik, iqtisodiy siyosat, ijtimoiy siyosat huquqiy siyosat, demografik siyosat, milliy siyosat, ekologik siyosat, kadrlar siyosati.

Siyosat-davlatni boshqarish san'ati. Siyosat turli ijtimoiy-siyosiy intlar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqa va guruhlar o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq. Uning mohiyatini davlat hokimiyati shakllari, uni amalga oshirish va boshqarish tashkil etadi. Siyosat keng ma'noda jamiyatning siyosiy tizimi, siyosiy hayoti, davlat hokimiyati, uning ichki va tashki faoliyati, siyosiy tashkilotlar va harakatlarning hokimiyatga munosabati, uni boshqarishda siyosiy manfaatlarni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlarini o'zida ifoda etadi. Shunga ko'ra adolatli va adolatsiz, xolis va noxolis, insonparvar yoki inson manfaatlariga zid siyosat, demokratik va avtoritar Siyosat ko'rinishlarini boshqaruvda kuzatish mumkin [1]. Qadimda siyosatga jamiyat va shahar-davlat (polis)ni boshqarish to'g'risidagi fan (Platon va Aristotel) sifatida qaralgan bo'lsa, hozirgi vaqtda siyosat deganda davlatni boshqarishning vazifa va maqsadlari hamda bu maqsadlarni amalga oshirish uchun mavjud yoki zarur bo'ladigan ijtimoiy-siyosiy intlar, jamoat boshqarishdagi ishtiroki tushuniladi. Amaliy siyosat odamlarning saylovchi, deputat va vazir va hokozolar, sifatida davlat hayotida faol ishtirok etishini anglatadi.



Siyosat o‘z ta’sir etish obyektiga ko‘ra 2 ga: ichki va tashqi siyosatga bo‘linadi. Siyosat ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat hayoti sohalari: iqtisodiy, ijtimoiy, milliy, ilmiy-texnikaviy, ekologiya, madaniyat, harbiy va boshqa sohalarni qamrab oladi. Shu tarzda iqtisodiy siyosat, ijtimoiy siyosat, milliy siyosat, demografik siyosat, agrar siyosat, texnikaviy siyosat, ekologik siyosat, madaniy siyosat, kadrlar siyosati, harbiy siyosat va boshqa yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Siyosat subyektlari orqali ham ifodalanadi. , davlat siyosati, partiyalar va jamoat birlashmalari va harakatlari siyosati va hokazo [2].

Siyosatni tushunishga turli xil yondoshuvlar bor. Ular teologik, tabiiy, sotsial, ratsional-tanqidiy yo‘nalishlarda siyosatning tabiatini tushunish va tushuntirish bilan bog‘liq qarashlardir. Mustabid Sovet davrida Siyosatni ijtimoiy-sinfy nuqtayi nazardan tushunish, uning ustuvor yo‘nalishini belgilasa muayyan ijtimoiy qatlam (proletariat) manfaatidan kelib chiqqan holda baholash odat bo‘lgan. Bunday yondashuv siyosatning mohiyatini noxolisona tushunishga olib keldi va inson siyosatning passiv obyektiga aylantirildi. Natijada inson siyosat bilan emas, balki siyosat inson bilan shug‘ullana boshladi. Oxir oqibatda siyosat sinfiy manfaatlar asosida haddan tashqari mafkuralashib ketdi. Siyosat demokratik, umuminsoniy tamoyillardan ajratilib, milliy-ma’naviy xususiyatlarni hisobga olmaydigan holga keltirildi, asl mohiyatiga zid bo‘lgan ma’no kasb etdi. Siyosat «boshqarish san’ati»ga emas, aksincha, zo‘rlik, ta’qib etish vositasiga aylandi. Davlat boshqaruvida manfaatlar uyg‘unligi buzildi. Siyosiy hayotda «davlat — jamiyat inson» munosabati qaror topib, davlat manfaati jamiyat va inson manfaatidan ustun bo‘lib qoldi.

Siyosatshunoslik- jamiyatning siyosiy hayoti va siyosiy munosabatlarini hamda jahon siyosatining namoyon bo‘lish yoki ta’sir etish xususiyatlarini o‘rganuvchi fandır. Jamiyatni boshqarish va undagi muammolarni hal qilishga daxldor bo‘lgan davlat, siyosiy partiyalar va harakatlar, xalqaro siyosiy tashkilotlar, jamoat tashkilotlari, shuningdek, ijtimoiy guruhlarning siyosiy faoliyati ham siyosatshunoslikning predmetini tashkil etadi. Siyosatshunoslikning fan sifatidagi o‘ziga xos jihati shundaki, u barcha ijtimoiy jarayonlarni siyosiy hokimiyatga nisbatan o‘rganadi. Shuning uchun ham aynan “Siyosiy hokimiyat” kategoriyasi siyosat fenomenining mohiyat mazmunini to‘liq ochib beradi [4].



Siyosatshunoslik kategoriyalari:

Siyosat, Siyosiy hokimiyat, Siyosiy jarayonlar, Siyosiy hayot, Siyosiy munosabat, Siyosiy faoliyat, Siyosiy partiyalar, Siyosiy tashkilot, Siyosiy institutlar, Siyosiy tizim, Siyosiy ong va madaniyat, Siyosiy qadriyatlar, Xalqaro siyosiy munosabatlar, Siyosiy qatnashuv, Siyosiy begonalashuv, Jahon siyosati, Geosiyosat.

Mustaqillik tufayli O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosati yangicha ma’no va mazmun kasb eta boshladi. Bu siyosat avvalo, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asoslanmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, Oliy Majlis siyosiy intlar faoliyati orqali amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda demokratiyaning umuminsoniy prinsiplariga rioya qilinishi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadriyat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Bu hol bugungi O‘zbekistonda olib borayotgan siyosatning asosiy mohiyatini, uning insonparvar siyosat ekanligini belgilaydi.

Rejim- atamasining zamonaviy akademik ishlatilishi ommabop va jurnalistik foydalanishga qaraganda kengroq bo‘lib, "hukumat (kundalik qarorlarni qabul qiladigan va o‘zgartirish oson) va davlat (bu murakkab byurokratiya bir qator majburiy funksiyalar).Global tadqiqotlar va xalqaro munosabatlarda rejim tushunchasi nom berish uchun ham ishlatiladi. Xalqaro tartibga solish agentliklari (xalqaro rejim), bu milliy hukumatlar nazoratidan tashqarida. Shunday qilib, ba’zi mualliflar institutlar va rejimlarni bir-biri bilan bog‘liqligini anglagan holda analitik ravishda ajratib turadilar: [5]

Demokratiya — (qadimgi yunoncha, “xalq hokimiyati“) — barcha insonlar tenglik bilan kollektiv qarorga kelish imkoniga ega siyosiy tuzum hisoblanadi. Demokratiyada fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatchiligining vosita va shakllari amalda o‘rnatilgan va yuzaga chiqarilgan bo‘ladi. Demokratiya davlat bilan inson munosabatlarini belgilaydi.

Avtoritarizm - (lotincha, “hokimiyat“) — davlatni idora qilish usuli. Avtoritarizmda siyosiy hokimiyat hukmdor shaxsning yoki yetakchining siyosiy irodasi va qarorlari asosida amalga oshiriladi.



Totalitarizm - (lot. totalis — yaxlit, to‘liq) - davlat boshqaruv shakllaridan biri (totalitar davlat). Totalitarizm da jamiyat hayotining barcha sohalari ustidan davlatning yalpi, to‘la (total) nazorati o‘rnatiladi, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar tugatiladi, bir shaxs, ijtimoiy guruhning (harbiylarning yoki bir partiyaning) yakkahokimligiga so‘zsiz bo‘ysuniladi, muholafat va o‘zgacha fikrlovchilar qatag‘on qilinadi (20-asrning 20-yillari oxiridan boshlab fashistlar Italiyasidagi, natsistlar Germaniyadagi totalitarizmning turli shakllari, SSSRdagi kommunistik rejim, Ispaniyadagi frankizm va boshqalar) etatizm, avtoritarizmni oqlovchi siyosiy tafakkur yo‘nalishi. 20-asrning 20-yillaridan Totalitarizm Germaniya va Italiyadagi fashistlarning rasmiy mafkurasiga aylangan.

Siyosatda rejim - bu boshqaruv shakli yoki qoidalar, madaniy yoki ijtimoiy normalar va boshqalar. Bu hukumat yoki muassasa faoliyatini va uning jamiyat bilan o‘zaro ta‘sirini tartibga soladi [6].

Tarkibi:

- 1) foydalanish
- 2) manbalar:
- 3) iqtiboslar
- 4) manbal

Rejimlarni institutlar yoki institutsionalizatsiya qilingan amaliyotlarga kiritilgan protokollar va me‘yorlar to‘plami sifatida ta‘riflash mumkin – davlatlar kabi rasmiy yoki "liberal savdo rejimi" kabi norasmiy – ommaviy ravishda qabul qilingan va nisbatan bardoshli.

Avtoritar davlatda g‘ayridemokratik, avtoritar rejim hukmronlik qiladi. Avtoritar rejimdagi davlatlar uchun fuqarolarning huquq va erkinliklari cheklangan yoki butunlay tugatilganligi, muxolifatdagi partiya va boshqa tashkilotlarning ta‘qiqlanganligi, saylab qo‘yiladigan davlat organlarining roli cheklanganligi va ijro etuvchi hamda farmoyish beruvchi davlat organlarining roli kuchaytirilishi, davlat boshlig‘i va hukumatning qo‘lida hokimiyat vakolatlarining to‘planishi, parlament va boshqa davlat hokimiyat organlarining rolini yo‘qqa chiqarilganligi xosdir.

Avtoritar rejimning eng xavfli shakllaridan biri fashizmdir. Fashistik rejim 20-asrning 30-40-yillarida g‘arb mamlakatlarida (Germaniya, Italiya) paydo bo‘lib, u yerda mavjud bo‘lgan demokratik huquq va erkinliklarni yo‘qqa chiqardi va muxolif partiya va tashkilotlarni terroristik usulni qo‘llab yanchib tashladi. Fashizmga



ijtimoiy asosni hokimiyatga intiluvchi kuchlar va aldangan ishchi, dehqonlar qatlami yaratdilar.

Fashistik rejimlarni paydo bo'lishiga jamiyatning ichida ijtimoiy-sinfy ziddiyatlarning keskinlashuvi, hukmron sinfningsiyosiy hokimiyatini inqirozi sabab bo'ladi. Inqirozlar natijasida hukmron tabaqa o'z hukmronligini liberal-demokratik usullar orqali ta'minlay olmaydi, shu sababli hokimiyatni qo'ldan boy berishdan qo'rqib terroristik usullarni qo'llashga o'tadi. Ularga misol qilib, ikkinchi jahon urushi boshlanishi oldidagi Germaniya va Italiyadagi fashistik rejimlarni ko'rsatish mumkin. Bu mamlakatlarda mavjud bo'lgan fashistik rejimni xususiyatlariga quyidagilarni ko'rsatish mumkin: aholini kam ta'minlangan qatlamini himoya qilishni ro'kach qilib boshqaruvni repressiv usullarini qo'llash; ommaviy axborot vositalari orqali g'ayrikommunistik va g'ayrisemit g'oyalarni targ'ib qilinishi; xalq farovonligi uchun g'amxo'rlik qilish to'g'risidagi yolg'on shiorlarni tarqatish; fashist rahbarlari siyosatiga qarshi bo'lganlarga davlat miqyosida kurash olib borish; hukmron doiralarning armiya, politsiya va boshqa repressiv kuchlarga tayanishi; Germaniya va Italiya fashistlari yo'l boshchilarining daxlsizligi, dohiylikka da'vogarligi va hokazo [8].

Bu sanab o'tilganlardan tashqari, fashistik rejimning yana bir qator o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ulardan eng muhimi ijro etuvchi hokimiyatning qonun chiqaruvchi hokimiyatdan mutlaq ustunligidir. Ijro etuvchi hokimiyatning mutlaq ustunligi "tub islohotlar"ni o'tkazish, "millatlar birligi" uchun kurashish, "haqiqiy" demokratiyani o'rnatish, qonuniylik va adolatni tantanasi uchun kurashish kabi shiorlarni o'rtaga tashlash bilan ta'minlandi. Bunda parlament faoliyat yuritishni to'xtatadi va siyosiy jihatdan betaraflashadi. Parlament o'zining qonunlarni yaratish vakolatidan mahrum bo'ladi.

Siyosiy munosabatlar - bu jamiyatning siyosiy hayoti va uning siyosiy hayoti va uning siyosiy jarayonlaridagi uzluksiz harakatda bo'lgan siyosat subyektlari va ularning obyektiga ta'sir qiluvchi harakatlarning umumiy ifodasi va ularning birligidir.

Hozirgi kunga kelib insoniyat qanchalik ijtimoiy, milliy, siyosiy, irqiy, diniy va boshqa belgilardan kelib chiqqan xilma-xil to'siqlar bilan turli guruhlariga ajratib tashlangan bo'lmasin, xalqlarning turmush tarzlarining hammasi bitta sayyora-Yerda istiqomat qiladilar, hamma uchun bir umumiy bo'lgan muhitda hayot



kechiradilar. Bunday muammolarni hal qilish ko'pchilik mamlakatlar va xalqlar oldida turgan vazifalarga aylanib bormoqda. Xalqaro siyosiy munosabatlarning rivojlanishi bu munosabatlarda kelib chiqadigan turli xildagi ziddiyatlarga va ularni hal qilishga bog'liqdir [9].

Hozirgi davrda xalqaro siyosiy munosabatlarda mavjud bo'lgan ziddiyatlar quyidagilardan iborat.

- 1) Xalqaro siyosiy munosabatlarda mavjud bo'lgan muammolar bilan ularni hal qilish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlar;
- 2) Har bir mamlakatning milliy manfaatlari bilan ularning baynalminal manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlar;
- 3) Xalqaro siyosiy munosabatlarda ishtirok qiluvchi sub'ektlarning manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlar;
- 4) xalqaro siyosiy munosabatlarni tartibga solish bilan uning imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlar.

Xalqaro maydondagi hamkorlik ilg'or dunyo tajribasini o'rganish, xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish orqali O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni hal qilishga yordam berishi kerak, bu mamlakatda maksimal qulay amaliy va investitsion muhitni shakllantirishga o'z hissasini qo'shadi.

Bu borada Respublika tashqi siyosiy strategiyasi xorijiy mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etish, mahalliy eksport geografiyasini kengaytirish sohasida yangi qirralarni ochdi. Siyosiy jarayonlar va siyosiy munosabatlardagi ziddiyatlar yo'qolib ketmaydi, ular bu sohadagi muammolarning hal qilinishiga qarab yangidan paydo bo'laveradi va shu tariqa bu sohada rivojlanish, taraqqiyotga erishib borilaveradi [10].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Politologiya: O'quv qo'llanma / Otamurodov S., Ergashev I., Akramov Sh., Qodirov A. – T., 1999.
2. Politologiya: Ma'ruzalar matni/ Taqrizchilar V.S.Kim, J.Baxronov.-T., 2000. – 15-40.
3. Pugachev V.P., Solovyev A.I. Siyosatshunoslikka kirish: O'quv qo'llanma. T., 2004. – B.6482, 184-201.



4. Temur tuzuklari / Mas'ul muharrir B. Ahmedov. – T., 1991. – B. 3-16.
5. Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti. T., 2009 -B. 5-32.
6. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T., 2017. – B. 15-36.
7. O'zbekiston Respublikasining «Jamoat tashkilotlari to'g'risida»gi 1991 yil 15 – fevral qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. – T., 1991. - № 4; 1992. №9.-363-m.; 1997.№4-5. 126-m.; 1998.-№3.-38-m.
8. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplari to'g'risi»gi 1996 yil 26 dekabr qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. –T., 1997. - №2.
9. O'zbekiston Respublikasining «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizasiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitusiyaviy qonuni // Halq so'zi. – 2007. – 12 aprel. - №71.
10. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T6.-T., 1998. –B. 31-261.